

**TOSHKENT DAVLAT TEXNIKA UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY
DARAJALAR BERUVCHI DSc.03/30.12.2019. T.03.04 RAQAMLI ILMIY
KENGASH**

TOSHKENT DAVLAT TEXNIKA UNIVERSITETI

QURBONOV BEHZOD BAHODIR O‘G‘LI

**DVIGATEL TAQSIMLASH VALI KULACHOK – TURTGICH JUFTLIGI
YEYILISHBARDOSHLIGINI TADQIQ QILISH USLUBIYATINI ISHLAB
CHIQUISH**

05.02.02 – Mexanizmlar va mashinalar nazariyasi. Mashinashunoslik va mashina detallari

**TEXNIKA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Toshkent- 2025

**Texnika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора
философии (PhD) по техническим наукам**

**Contents of dissertation abstract of doctor of
philosophy (PhD) on technical sciences**

Qurbonov Behzod Bahodir o‘g‘li

Dvigatel taqsimlash vali kulachok - turtgich juftligi yeyilishbardoshligini tadqiq qilish
uslubiyatini ishlab chiqish3

Қурбонов Бехзод Баҳодир ўғли

Разработка метода исследования износостойкости кулачково - толкательной пары
распределительного вала двигателя.....23

Qurbonov Behzod Bahodir ugli

Development of a method for studying the wear resistance of the cam and pusher pair of the
Engine camshaft.....43

E‘lon qilingan ishlar ro‘uxati

Список опубликованных работ
List of published works.....47

**TOSHKENT DAVLAT TEXNIKA UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY
DARAJALAR BERUVCHI DSc.03/30.12.2019. T.03.04 RAQAMLI ILMIY
KENGASH**

TOSHKENT DAVLAT TEXNIKA UNIVERSITETI

QURBONOV BEHZOD BAHODIR O‘G‘LI

**DVIGATEL TAQSIMLASH VALI KULACHOK – TURTGICH JUFTLIGI
YEYILISHBARDOSHLIGINI TADQIQ QILISH USLUBIYATINI ISHLAB
CHIQISH**

05.02.02 – Mexanizmlar va mashinalar nazariyasi. Mashinashunoslik va mashina detallari

**TEXNIKA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Toshkent- 2025

Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2025.1.PhD/T3181 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Doktorlik dissertatsiyasi Toshkent davlat texnika universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengashning veb-sahifasida (www.tdtu.uz) va "Ziyonet" Axborot ta'lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Irgashev Amirqul Irgashevich
texnika fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar :

Axmedov Azamat Xayitovich
texnika fanlari doktori, professor

Po'latov Tohirjon Rustambekovich
texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori,
dotsent

Yetakchi tashkilot:

Navoiy davlat konchilik va texnologiyalar universiteti

Dissertatsiya himoyasi Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti huzuridagi DSc.03/30.12.2019.T.03.04. raqamli Ilmiy kengashning 2025 yil 17 dekabr kuni soat 16⁰⁰ dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 100095, Toshkent shahri, Universitet ko'chasi, 2-uy. Tel./faks: (99871) 227-10-32, e-mail: tadqiqotchi@tdtu.uz)

Dissertatsiya bilan Toshkent davlat texnika universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (№ 62 raqami bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: 100095, Toshkent shahri, Universitet ko'chasi, 2-uy. Tel.: (99871) 227-10-32.)

Dissertatsiya avtoreferati 2025 yil 04 dekabr kuni tarqatildi.
(2025 yil 04 dekabrda 202 raqamli reestr bayonnomasi).

K.A.Karimov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi, texnika fanlari doktori, professor

Sh.B.Tashbulatov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash ilmiy kotibi, texnika fanlari doktori, dotsent

A.A.Muxitdinov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi, texnika fanlari doktori, professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahonda dvigatellar konstruksiyasini takomillashtirish, ularning ish samaradorligini oshirish hamda yuqori aniqlikdagi detallar xizmat muddatini uzaytirish masalalariga alohida ahamiyat berilmoqda. Dvigatellarda gaz taqsimlash mexanizmining aniq va barqaror ishlashi, ko'p jihatdan undagi detallarning geometrik aniqligi va yeyilishbardoshligiga bevosita bog'liq. Ushbu yo'nalishda geometrik aniqlikni ta'minlash, yeyilish tezligini kamaytiruvchi konstruktiv hamda texnologik yechimlarni ishlab chiqish, texnik xizmat ko'rsatish xarajatlarini kamaytirish va mahsulotning funksional ishonchliligini oshirish bo'yicha ilmiy tadqiqotlarning dolzarbligi ortib bormoqda. Gaz taqsimlash mexanizmi ish samaradorligini oshirishga qaratilgan ilmiy tadqiqotlar dvigatel umumiy resursini oshirish, bozorni sifatli avtomobil ehtiyot qismlari bilan ta'minlash, qolaversa, import o'rnini bosuvchi yuqori aniqlikdagi mahsulotlar ishlab chiqarish imkonini beradi. Shu bois, dvigatel detallarining yeyilishbardoshligini tadqiq qilish va baholash uslubiyatini ishlab chiqishga dolzarb ilmiy-amaliy vazifa sifatida alohida e'tibor qaratilmoqda.

Jahonda ichki yonuv dvigatellari gaz taqsimlash mexanizmlarining ishonchliligini oshirish va ularning ishqalanish juftliklarida yuz beradigan yeyilish jarayonlarini aniqlashga qaratilgan keng ko'lamli ilmiy-tadqiqotlar olib borilmoqda. Ushbu yo'nalishda, jumladan, taqsimlash valining kulachok–turtgich juftligida yuzaga keladigan kontakt yuklamalari, mikrogeometrik o'zgarishlar va abraziv zarrachalar ta'siri ostida kechadigan yeyilish jarayonlarini ilmiy asoslash bo'yicha tadqiqotlar ustuvor hisoblanmoqda. Shu bilan bir qatorda taqsimlash valining kulachok – turtgich juftligi resursini, namunalar yordamida yeyilishbardoshlikka sinashni tezlashtirish imkoniyatini ishlab chiqish ham dolzarb vazifalardan hisoblanmoqda.

Respublikamizda transport vositalari samaradorligi va ekspluatatsion ishonchliligini oshirish, mashina detallarining aniqligini ta'minlash asosida mashina va mexanizmlarning sifat ko'rsatkichlarini yaxshilash, ularning xizmat muddatlarini uzaytirish bo'yicha keng ko'lamli ilmiy tadqiqot ishlari olib borilib, muayyan natijalarga erishilmoqda. Mazkur jarayonlarni tizimli davom ettirish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi PF-60-sonli "2022–2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi Farmonida "...milliy iqtisodiyot barqarorligini ta'minlash va yalpi ichki mahsulotda sanoat ulushini oshirishga qaratilgan sanoat siyosatini davom ettirib, sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish hajmini oshirish..."¹ bo'yicha muhim vazifalar belgilab berilgan. Bu borada, jumladan, dvigatel taqsimlash vali kulachok–turtgich juftligining yeyilishbardoshligini tadqiq qilish uslubiyatini ishlab chiqish nafaqat gaz taqsimlash mexanizmining barqaror ishlashini ta'minlash, balki dvigatel resursini oshirish, texnik xizmat ko'rsatish jarayonida yuzaga keladigan nosozliklarni oldindan aniqlash va ularni bartaraf etishning ilmiy asoslangan yechimlarini shakllantirishga xizmat qilishi bilan alohida ahamiyat kasb etadi.

¹O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi PF-60-sonli "2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi PF-60-sonli “2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmoni, 2018 yil 27 apreldagi PQ-3682-sonli “Innovatsion g‘oyalar, texnologiyalar va loyihalarni amaliy joriy qilish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi, 2023 yil 29 martdagi PQ-103-son «Agrar sektorni zamonaviy qishloq xo‘jaligi texnikalari bilan ta‘minlashni rag‘batlantirishning qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi Qarorlari hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning Respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining II. «Energetika, energiya va resurstejamkorlik» ustuvor yo‘nalishi doirasida bajarilgan va Vazirlar Mahkamasining 2021 yil 24 aprelda tasdiqlangan «Qishloq xo‘jaligining ustuvor yo‘nalishlari, global, mintaqaviy va hududiy muammolarining ilmiy yechimlarini tadqiq qilish bo‘yicha 2022-2026 yillarga mo‘ljallangan dastur» da keltirilgan ustuvor yo‘nalishga mos keladi.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Dunyo olimlari tomonidan avtotraktorlar dvigatellarining ishonchligini ta‘minlash, texnik xizmat ko‘rsatish va ta‘mirlash tizimini takomillashtirish yo‘nalishida samarali tadqiqotlar olib borilgan va muayyan natijalarga erishilgan. Jahonning yetakchi ilmiy-tadqiqot markazlari va oliy ta‘lim muassasalarida dvigatellar gaz taqsimlash mexanizmining ish faoliyatini takomillashtirish, ularning texnik holatini baholash, yeyilish natijasida sodir bo‘ladigan nosozliklarni aniqlash hamda detallarning texnik resursini prognozlashga bo‘yicha keng qamrovli izlanishlar olib borilgan. Xususan, xorijlik olimlardan K. Shimizu, S. V. Kamkin, M. Karamish, I. V. Voznitskiy, M. Hafiz, G. A. Konks, L. Cveticanin Z. Stanik, B.Lazarz, S. Juliano, J. A. Escobar, C. Coelho, V. Paradorn, J. Kim, S. Lee, S.P. Lindholm, Y. Takeda, T. Venkatesh, H. Manjunath, Y. Meng kabi tadqiqotchilar dvigatel gaz taqsimlash mexanizmi uzellarida kechadigan yeyilish jarayonlarini tadqiq qilish, ulardagi yeyilishbardoshlikni tashxislash, abraziv zarrachalar konsentratsiyasini baholash va yuza g‘adir-budirliklarini hisoblash ga oid qator ilmiy ishlarni amalga oshirishgan. Shuningdek, Rossiya va MDH olimlari orasida S.A.Viktorovich, V.N. Kucherov, Y.A. Kamkin, I.V. Voznitiskiy, V.F. Timoshenko, P.V. Stepurin, Y.B. Agyeva, G.A. Timofev, I.N. Chernishova kabi tadqiqotchilar dvigatel gaz taqsimlash mexanizmidagi nosozliklar sabablarini tahlil qilish, ularni oldini olish va ishlash barqarorligini ta‘minlashga oid qator ilmiy ishlarni amalga oshirishgan.

Mashina va mexanizmlar nazariyasi bo‘yicha olib borilgan tadqiqotlar ham ushbu sohaning rivojlanishida muhim o‘rin tutadi. Bu yo‘nalishda xorijiy olimlardan I.I. Artobolevskiy, R.L. Norton, C.S. Hsiao, A. P. Butenko, V.N. Kudrjavitsev, M. Koenigsberger, F.P. Bowden, K. Ludema va boshqalar mashinasozlik nazariyasi, mexanik tizimlar dinamikasi va ularni matematik modellashtirish bo‘yicha yirik ilmiy natijalarga erishganlar. O‘zbekistonlik olimlar ham ushbu yo‘nalishda salmoqli hissalarini qo‘shganlar. Jumladan, U.A. Ikromov, A.I. Irgashev, A.J. Juraev, Sh.A. Shoobidov, R.I. Karimov, K.A. Karimov, Q.H. Mahkamov, T.R. Po‘latov X.I.

Ishmuratov, N.N. Mirzaev, A.X. Ahmedov, R.E. Shaxobutdinov va boshqa olimlarning ilmiy ishlarida gaz taqsimlash mexanizmi uzellarida kechadigan yeyilishning turlari, sabablari, belgilari va yeyilishning oqibati sifatida ko'riladigan dvigateldagi nosozliklar hamda detallarining muddatidan oldin ishdan chiqishi sabablari o'rganilib, buni oldini olish va ishdan chiqqan detallarni qayta tiklash masalalarini yechishda salmoqli natijalarga erishilgan.

Adabiyotlar tahliliga ko'ra, hozirgi kunga qadar dvigatellarining ishlash samaradorligini oshirish, gaz taqsimlash mexanizmi uzellarining resursini baholash hamda nosozliklarni pragnozlash bo'yicha olib borilgan tadqiqotlarga qaramay, hali ham to'liq yechimini topmagan masalalar mavjud. Jumladan, gaz taqsimlash mexanizmining kulachok-turtgich juftligi yeyilishbardoshligini tadqiq qilish orqali dvigatel taqsimlash validagi yeyilish jarayonlarini sinashning tezlashtirilgan va optimal usulini ishlab chiqish respublikamizning texnik va texnologik taraqqiyotida muhim ilmiy va amaliy ahamiyatga ega.

Dissertatsiya mavzusining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasining ilmiy-tadqiqot rejalari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti Toshkent davlat texnika universiteti №15-004 «Mashina va mexanizmlarni kuch uzatish agregatlari detallarining texnik holatini, ularni bo'laklarga ajratmasdan zudlik bilan diagnostika qilish» (2009-2012), №F-2-27 «Mobil mashinalarni va sanoat uskunalari agregatlarining tishli uzatmalarining yeyilish bardoshligini oshirishning ilmiy asoslarini ishlab chiqish» (2012-2016) mavzularida fundamental va amaliy loyihalari asosida hamda ToshDTU «Xizmat ko'rsatish texnikasi» kafedrasining ilmiy-tadqiqot rejasiga (2021-2025 y.y.) muvofiq bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi - avtotraktor ichki yonuv dvigateli gaz taqsimlash vali kulachogining yeyilishbardoshlikka sinashni tezlashtirish imkonini beruvchi uslubiyatni ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

avtotraktor dvigateli gaz taqsimlash mexanizmi detallarni yeyilish natijasida sodir bo'ladigan nosozliklarni sodir bo'lish sabablarini aniqlash va tahlil qilish orqali dissertatsiya mavzusini asoslash;

gaz taqsimlash vali kulachoklarining yeyilishbardoshligiga ta'sir etuvchi ko'rsatgichlarni tadqiq qilish;

kulachok profilini yeyilish jarayonida ishtirok etuvchi, motor moyi tarkibidagi abraziv zarrachalarning miqdorini va o'lchamini, ishqalanish sirtlaning g'adir-budurlik ko'rsatgichlarini aniqlashga qaratilgan nazariy tadqiqotlar olib borish;

gaz taqsimlash vali kulachoklarining profilini motor moyi tarkibidagi abraziv zarrachalar ishtirokida va ularning ishtirokisiz, ishqalanish sirti g'adir-budurliklari ta'sirida sodir bo'ladigan yeyilish jarayonlarning tezligini hisoblash bo'yicha nazariy tadqiqotlar o'tkazish;

kulachok profili va turtgich gilzasidan iborat bo'lgan juftlikning ishqalanish jarayonini namunalar bilan modellashtirish va yeyilishbardoshlikka sinashni tezlashtirish imkoniyatini beruvchi uslubiyatni ishlab chiqish va tajriba tadqiqotlarini o'tkazish;

tadqiqot natijalarining iqtisodiy samaradorligini baholash.

Tadqiqot ob'ekti sifatida D-240 ichki yonuv dvigateli gaz taqsimlash vallarining kiritish va chiqarish kulachoklari olingan.

Tadqiqotning predmetini D-240 ichki yonuv dvigateli gaz taqsimlash vallarining kiritish va chiqarish kulachoklarining yeyilishbardoshlikka sinashni tezlashtiruvchi uslubiyatini ishlab chiqish tashkil etgan.

Tadqiqot usullari. Tadqiqot jarayonida geometrik–analitik modellashtirish usuli, MI-1M turdagi tribologik stenda ishqalanish jarayonini modellashtirish usuli, abraziv zarrachalar ta'sirini aniqlovchi fraksiyalangan sinovlar usuli, material namunalarida tezlashtirilgan kontakt sinovlari usuli, mikroqattqlik o'lchovi usuli, Archard yeyilish modeli asosida yeyilish miqdorini aniqlash usuli, shuningdek statistik tahlil va regression modellashtirish kabi usullardan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

gaz taqsimlash vali kulachok profillari va turtgich gilzasidan iborat bo'lgan ishqalanish juftligining yeyilishbardoshligiga ta'sir ko'rsatuvchi, ular o'rtasidagi tutashuv dog'ining kengligini va maydonini tutashuv yuklamasiga bog'liqligini hisoblash imkonini beruvchi analitik bog'lanishlar keltirib chiqarilgan;

kulachok profilining ishlatish davrida sodir bo'ladigan yeyilish jarayolari abraziv zarrachalar ishtirokida va ularning ishtirokisiz sodir bo'lib, moy tarkibida abraziv zarrachalar bo'lmaganda, yeyilish faqat ishqalanish sirtlari g'adir-budurliklarining o'zaro ta'siri orqali sodir bo'lishi ko'rsatilgan;

kiritish va chiqarish kulachoklari profili ishqalanish sirtining muvozanatlashgan g'adir-budurlikni klapan prujinasini deformatsiyalovchi kuchga, kulachok va turtgich juftligidagi tutashuv kengligiga va maydoniga nisbatan o'zgarish qonuniyatlari aniqlangan;

Kulachok profili va kulachok profilining egrilik radiusi asosida yasalgan namunalarning yeyilish tezligi o'rtasidagi bog'liqlikni ifodalovchi regression model ishlab chiqilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

taqsimlash vali kiritish va chiqarish kulachogi profilining yeyilish sohasiga nisbatan geometrik parameterlarini hisoblash usuli ishlab chiqilgan;

kiritish va chiqarish kulachoklari profilining yeyilish sohalari na'munalarini modellashtirish texnologiyasi ishlab chiqilgan

kiritish va chiqarish kulachoklari profilining yeyilish sohalari modellashtirilgan namunalarning yeyilishga sinashni tezlashtirish koeffitsentlarining umumiy qiymati aniqlangan;

Kulachok sirtidagi yeyilish tezligini kulachok holati bo'yicha yasalgan namunalar orqali, kulachok profiliga nisbatatan 19,5 dan 821,5 martagacha oshirish mumkinligi asoslangan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Tadqiqot natijalarining ishonchliligi, zamonaviy tadqiqot uslub va vositalarning va kompyuter dasturlarining qo'llanilganligi va yaratilganligi, kiritish va chiqarish kulachoklari va turtgich gilzasidan iborat bo'lgan ishqalanish juftligining yeyilishbardoshligini texnik xizmat ko'rsatish va joriy ta'mirlash orqali oshirishga qaratilgan nazariy va amaliy tadqiqotlarining natijalarini qiyosiy tahlil qilinganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqotning ilmiy ahamiyati taqsimlash valining kiritish va chiqarish kulachoklari profillarida abraziv zarrachalar ishtirokidagi va ishtirokisiz kechadigan yeyilish jarayonlarini baholashga imkon beruvchi uslubiyat ishlab chiqilgani va ushbu uslubiyat orqali kulachok profili va turtgich gilzasi orasidagi kontakt kegliligi, tutashuv dog'ining maydoni, sirt g'adirbudurligi hamda abraziv zarrachalarning ta'sir ko'rsatkichlari aniqlangani, natijada ishqalanish juftligida sodir bo'ladigan yeyilish mexanizmlarini ilmiy asosda baholash imkoniyatining kengaygani bilan izohlanadi.

Tadqiqotning amaliy ahamiyati kulachok–turtgich ishqalanish juftligini rolikli analoglar yordamida modellashtirish orqali sinov jarayonini sezilarli tezlashtirish imkoniyati yaratilgani bilan izohlanadi

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Dvigatel taqsimlash vali kulachok – turtgich juftligining yeyilishbardoshligini tadqiq etish uslubiyatini ishlab chiqish va tadqiq etish bo'yicha olingan ilmiy natijalar asosida:

avtotraktor ichki yonuv dvigateli gaz taqsimlash vali kulachoklarini yeyilishbardoshlikka sinashni tezlashtirish imkonini beruvchi uslubiyatni "O'ZAGROSERVIS" AJ ga qarashli "Surxondaryo Agroservis MTP" MCHJda amaliyotga joriy qilingan ("O'ZAGROSERVIS" AJ 2023 yil 4 dekabrda 09-03/102-1180 son ma'lumotnomasi). Natijada kulachok profilini yeyilishga sinash namunalarda olib borilishi bir juft namunalarni sinashdagi ish hajmini 287,4 marta tezlashtirish imkonini bergan;

dvigateli gaz taqsimlash vali kulachoklarini yeyilishbardoshlikka sinash ishlari olib borildi. "Surxondaryo Agroservis MTP" MCHJ da amaliyotga joriy qilingan ("O'ZAGROSERVIS" AJ 2023 yil 4 dekabrda 09-03/102-1180 son ma'lumotnomasi). Natijada tashxislash va 2-TXK o'tkazish, dvigatelda olib borilganda 250 soatni, sinash namunalarda olib borilganda esa ushbu hajmdagi sinov ishlarini bajarish uchun 32,7 soat sarflanishi hisobiga sinov muddatini 7,65 marta qisqartirish imkonini bergan;

Kulachok profili va turtgich gilzasi orasidagi tutashuv dog'i maydoni, sirt mikrogeometriyasi hamda moydagi abraziv zarrachalar konsentratsiyasiga asoslangan yeyilish tezligini prognozlash mezonlari "Surxondaryo Agroservis MTP" MCHJda amaliyotga joriy qilingan ("O'ZAGROSERVIS" AJ 2023 yil 4 dekabrda 09-03/102-1180-son ma'lumotnomasi). Natijada kulachoklarni baholash va qayta tiklash bo'yicha qaror qabul qilish aniqligi oshirilib, qayta tiklangan kulachoklarning takroriy yeyilish tezligini 18–22 % ga kamaytirish imkonini bergan;

Tadqiqotdan kelib chiqqan texnologik tavsiyalar va sinov-diagnostik uslubiyatlar "Surxondaryo Agroservis MTP" MCHJning texnik xizmat ko'rsatish amaliyotiga tizimli tatbiq etildi ("O'ZAGROSERVIS" AJ 2023 yil 4 dekabrda 09-03/102-1180 son ma'lumotnomasi). Natijada kutilayotgan yillik iqtisodiy samara 139 344 000 (bir yuz o'ttiz to'qqiz million uch yuz qirq to'rt ming) so'mni tashkil etgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 4 ta xalqaro va 6 ta respublika ilmiy-amliy anjumanlarida muhokamadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha ja'mi 20 ta ilmiy ish chop etilgan bo'lib, O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya

kommissiyasi tomonidan dissertatsiyaning asosiy ilmiy natijalarini chop etilishi tavsiya qilingan ilmiy nashrlarda 8 ta maqola, jumladan, 4 tasi respublika va 4 tasi xorijiy jurnallarda chop etilgan.


Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya tarkibi kirish, to‘rtta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 118 betni tashkil etgan.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida o‘tkazilgan tadqiqotning dolzarbligi va talabi, tadqiqotning maqsadi va vazifalari, ob‘ekt va predmet xarakterlashtirilishi, tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi ko‘rsatilgan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va asosiy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning ishonchliligi asoslangan, olingan nazariy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy qilish, nashr etilgan ishlar va dissertatsiya tuzilishi bo‘yicha ma‘lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning **“Mashinalardan foydalanish davrida gaz taqsimlash mexanizmi detallarini yaroqsiz holatga olib keluvchi omillarni tadqiq etilganligi”** deb nomlangan birinchi bobida dvigatelning gaz taqsimlash mexanizmi uzellarida sodir bo‘ladigan nosozliklarning o‘rganilganligi, gaz taqsimlash mexanizmi uzellaridagi yeyilish jarayonlarini tadqiq qilish, gaz taqsimlash mexanizmi detallarining yeyilishbardoshligiga ta‘sir etuvchi omillarning tahlili va shu bilan bir qatorda ilmiy adabiyotlar tahlilidan kelib chiqqan holda ham gaz taqsimlash mexanizmi uzellarining ishlash prinsipi, ularda paydo bo‘ladigan nosozliklar va resursini baholash bo‘yicha asosli ma‘lumotlar keltirilgan.


Adabiyotlarni tahlil qilishdan olingan ma‘lumotlarga ko‘ra gaz taqsimlash mexanizmida yeyilish natijasida yuzaga keladigan nosozliklarning, 38 % aynan shu juftlikka to‘g‘ri keladi. Shu sababli ham taqsimlash valining kulachok – turtgich juftligi resursini va ishlash ravonligini, moydagi abraziv zarrachalar konsentratsiyasini va sirdagi g‘adir budirliklar koeffitsientini optimallashtirish dolzarb vazifa hisoblanadi va albatta bu detallarning sirtlaridagi yeyilish, ularda kechadigan yeyilish turlariga, ilashmadagi detallarning kimyoviy xususiyatiga va boshqa ba‘zi omillarga ko‘ra turlicha kechadi.



- 1 – o‘rindiqliklapan faskasi; 2 – klapan sterjeni-yo‘naltiruvchi vtulka; 3 – koromislo yotoq yuzasi - klapan yonboshi ; 4 – koromislo vtulkasi-o‘q; 5 – sozlash vintishtanga; 6 – turtgich-blok; 7 – shtanga-turtgich; 8 – kulachok-turtgich;
- 9 – prujina.

1– rasm. Gaz taqsimlash mexanizmining yeyilish sodir bo‘luvchi bo‘g‘inlarining sxemasi.

Kulachok-turtgich juftligining harakatlanishi natijasida eng yuqori yeyilish kulachokning klapan ochilish vaqtida harakatni ta'minlab beruvchi sohasida kuzatiladi (2.c-rasm). Yopilish zonasidagi yeyilish darajalari ochilish qiyaliklariga nisbatan kichikroq bo'lgan (2.b-rasm). Kallak qismi yuzasida o'rta miqdordagi chuqurchali yeyilish hosil bo'ladi (2.a-rasm). Eng kichik yeyilish esa aylana(silindrik) zonada aniqlangan(2.d-rasm). Kulachok – turtgich juftligining ilashishi natijasida kulachokning profil qismida yuzaga keluvchi 0.25 mm miqdordagi yeyilish klapaning ishlashidagi belgilangan vaqtga 3 gradusgacha salbiy ta'sir ko'rsatadi. Ushbu yeyilish boshqa muammolar qatorida divigvtelning ot kuchi va yoqilg'i tejamkorligiga salbiy ta'sir qiladi.




a-kulachok kallak qismidagi yeyilish, *b*-kulachokning klapan yopilish holatidagi yeyilishi, *c*-kulachokning klapan ochilish holatidagi yeyilishi, *d*-aylana holatdagi yeyilishi
2 – rasm. Kulachok profilidagi yeyilishning sohalar bo'yicha ko'rinishi

Gaz taqsimlash mexanizmining dumalab ishqalanuvchi uzellari detallarining normal ish faoliyatining izidan chiqishiga asosiy sabablardan biri sifatida ishchi muhitda kechadigan abraziv zarrachalar ishtirokidagi yeyilish jarayoni ko'riladi.


“Kulachok va turtkichdan iborat ishqalanish juftligining yeyilishbardoshligiga ta'sir ko'rsatuvchi parametrlarni asoslash” deb nomlangan ikkinchi bobida dvigatel gaz taqsimlash mexanizmi uzellarida sodir bo'ladigan nosozliklar bo'yicha tadqiqot mavzusini asoslash, gaz taqsimlash vali kulachoklari va turtgichlarining o'zaro tutashuvi va kulachok profilining geometrik ko'rsatkichlari, shu bilan birga kulachok va turtkich gilzasi ishqalanish juftligining tutashuv kengligini va tutashuv maydonini hisoblash nazariy jihatdan aniqlangan.

Dvigatelning kiritish va chiqarish kulachoklarining profili 6 xarakterli holatlardan iborat (3,4-rasmlar). Kulachok profili 1 va 6 holatlatlarda, o'zgarmas egrilik radiusiga ega bo'lib, uning markazi kulachokning aylanish markaziga to'g'ri keladi, unda kulachok va turtgich gilzasidan iborat bo'lgan ishqalanish juftligi o'zgarmas, eng kichik yuklamani qabul qiladi. Kulachok profilining 2 va 5 holatlari o'zgarmas egrilik

radiuslari bilan xarakterlanib, uning markazi kulachokning aylanish markazidan tashqarida joylashgan. Ushbu holatda klapan prujinasining vertikal deformatsiyasi sodir bo'lganligi sababli kulachok profilining har bir tutashuv nuqtasiga o'zgaruvchan yuklama to'g'ri keladi.




3 – rasm. Kiritish kulachogi xarakterli qismlarining joylashish sxemasi



4 – rasm. Chiqarish kulachogi xarakterli qismlarining joylashish sxemasi

Kulachokning profilining sohalar bo'yicha egrilik radiusiga nisbatan uning yeyilish miqdorini mikrometraj natijasida o'lchangan qiymatlari bo'yicha o'zgarishi 5- rasmdagi grafik orqali ko'rsatilgan.



U1-kiritish kulachogi uchun; U2-chiqarish kulachogi uchun.

5 – rasm. Gaz taqsimlash vali kulachoklari profilining yeyilish miqdorini kulachok profillarining egrilik radiusiga nisbatan o'zgarish grafigi

Kulachok profillarining egrilik radiusining eng katta qiymati, 31,5 mm bo‘lganda, porshenning holati silindrning yuqori o‘lik nuqtasiga to‘g‘ri keldi. Shu bilan birga kulachok profili va turtgich gilzasiga ta’sir etuvchi kuchning miqdoriga bog‘liq holda kulachok profillarining yeyilish miqdori silindrik qismiga nisbatan 8 martadan yuqoriroq qiymatga ega ekanligi aniqlandi.

Kiritish va chiqarish kulachoklari profillari uzunliklari tahlil qilinganda, ularning uzunligidagi farq kiritish kulachogi profilining uzunligi chiqarish kulachogi profilining uzunligidan 21,880 mm ga uzun ekanligi aniqlandi.

1 – jadval

Kulachok profilining umumiy uzunligini hisoblash va uni tahlil qilish

Kulachok sohasi	Kiritish kulachogi			Chiqarish kulachogi			Kulachok profillari uzunliklaridagi farq, mm
	Kulachokning qamrov burchagi, grad.	Kulachok radiusi, mm	Kulachok profili uzunligi, mm	Kulachokning qamrov burchagi, grad.	Kulachok radiusi, mm	Kulachok profili uzunligi, mm	
1	116,00	21,5	13,856	113,45	21,5	13,550	0,306
2	62,75	153,3	53,440	65,00	117,0	42,752	10,688
3	1,25	31,50	0,218	1,55	56,18	0,272	-0,054
4	1,25	31,50	0,218	1,55	56,18	0,272	-0,054
5	62,75	153,3	53,440	65,00	117,0	42,752	10,688
6	116,00	21,5	13,856	113,45	21,5	13,550	0,306
Kulachok profilining umumiy uzunligi, mm			135,028	Kulachok profili-ning umumiy uzunligi, mm		113,148	21,880

1 – jadvalda keltirilgan ma’lumotlarga muvofiq kirituvchi va chiqaruvchi kulachok profilarning holatlari bo‘yicha uzunliklaridagi farq bir xil emas. Kulachoklarning 1, 2, 4 va 6 – holatlarda kiritish kulachogining profili chiqarish kulachogining uzunligidan katta bo‘lib, kiritish kulachogi profili uzunligini 1, 6 holat uzunligi 0,02% ni, 2, 5 holat uzunligining 7,92% tashkil qilishini ko‘rsatdi.

Kulachok va turtkich gilzasi ishqalanish juftligining tutashuv kengligini va tutashuv maydonini konussimon rolikli dumalash podshipnik halqalari va roligi o‘rtasida sof dumalash bo‘lganda keltirilgan tutashuv kengligini hisoblash ifodasi asos bo‘lib xizmat qildi:

$$B_i = \frac{3,04 \cdot \sqrt{P_y \cdot \rho_{kel.i} \cdot (1 - \mu^2)}}{\sqrt{l_r \cdot \cos \alpha \cdot E_{kel}}}, mm \quad (1)$$

bunda μ - Puasson koeffitsiyeni; P_y - podshipnikning birgina roligi tomonidan podshipnikning ichki va tashqi halqalarga ta’sir ko‘rsatuvchi normal yuklama; $\rho_{kel.i}$ - ichki halqa va podshipnik roligining keltirilgan radiusi; l_r - podshipnik roligining uzunligi; E_{kel} - keltirilgan elastiklik moduli. Ushbu ifodan ishqalanish juftlari o‘rtasida chiziqli tutashuv bo‘lgan hollarda foydalanish mumkin.

Dissertatsiyaning “Gaz taqsimlash vali kulachoklarining yeyilishbardoshligini va yeyilishbardoshlikka ta’sir ko‘rsatuvchi omillarni tadqiq

qilish” deb nomlangan uchinchi bobida gaz taqsimlash vali kulachoklari profilining abraziv zarrachalar ishtirokidagi yeyilish tezligi va kulachoklarining yeyilishbardoshligi hisoblangan hamda kulachok profilini yeyilish jarayonida ishtirok etuvchi g’adir-budurliklarining ko’rsatgichlarini va motor moyidagi abraziv zarrachalarning o’lchami va miqdori nazariy tadqiq qilingan.

Yeyilish jarayonida ishtirok etuvchi kiritish va chiqarish kulachoklari moylovchi material tarkibida abraziv zarrachalar mavjud bo’lganda, yeyilish tezligini hisoblash uchun quyidagi ifodalar hosil qilingan:

kiritish kulachogining yeyilish tezligi,

$$\gamma_{a(k)} = \frac{10,29 \cdot d_{or}^2 \cdot \sigma_a \cdot G_k \cdot n_k \cdot \varepsilon_k \cdot \gamma_a \cdot k_v}{H_k \cdot n_{p.k} \cdot B_k \cdot \gamma_m}, \quad (4)$$

chiqarish kulachogining yeyilish tezligi,

$$\gamma_{a(ch)} = \frac{10,29 \cdot d_{or}^2 \cdot \sigma_a \cdot G_{ch} \cdot n_{ch} \cdot \varepsilon_k \cdot \gamma_a \cdot k_v}{H_{ch} \cdot n_{p.ch} \cdot B_{ch} \cdot \gamma_m}. \quad (5)$$

Tarkibida abraziv zarrachalar bo’lgan motor moyida ishlovchi kiritish va chiqarish kulachoklarining yeyilish tezligining qiymatlari quyidagi dastlabki ma’lumotlar asosida hisoblangan: yeyilish jarayonida ishtirok etuvchi abraziv zarrachalarning o’rtacha o’lchami $d_{or}=0,012$ mm; abraziv zarrachani siqishga mustahkamligi $\sigma_a=103,9$ MPa; abraziv zarrachalarning siqilishga mustahkamligi va kiritish kulachogi materialining qattiqligini o’rtasidagi bog’liqlik koeffitsiyenti $G_k=1,968$; abraziv zarrachalarning siqilishga mustahkamligi va chiqarish kulachogi materialining qattiqligini o’rtasidagi bog’liqlik koeffitsiyenti $G_{ch}=1,984$; kiritish (chiqarish) kulachogining aylanishlar chastotasi $n_k = 20c^{-1}$; motor moyidagi abraziv zarrachalarning miqdori $\varepsilon_k=0,2\%$; $0,3\%$; $0,4\%$; $0,5\%$; $0,6\%$; abraziv zarrachaning zichligi $n_k=1,9$ g/sm³; abraziv zarrachaning shaklini hisobga oluvchi koeffitsiyent $k_v=1,003$; kiritish kulachogi materialining $\gamma_a=1,9$ g/sm qattiqligi $H_k=610$ MPa; chiqarish kulachogi materialining qattiqligi $H_{ch}=600$ MPa; kiritish kulachogi deformatsiyalangan ishqalanish sirtini buzilishga olib keluvchi qayta deformatsiyalanishlar soni $n_{p.k}=24,0$; chiqarish kulachogi deformatsiyalangan ishqalanish sirtini buzilishga olib keluvchi qayta deformatsiyalanishlar soni $n_{p.ch}=22,3$; motor moyining zichligi $\gamma_m=0,91$ G/sm³.

Kiritish va chiqarish kulachogi profillarining yeyilishbardoshligini ta’minlovchi moydagi abraziv zarrachalarning miqdorini hisoblash ifodasi, kulachok profilini ruxsat etilgan chegaraviy yeyilish miqdori U_{ch} , abraziv zarrachalar ishtirokidagi yeyilish miqdori U_{ish} va abraziv zarrachalar ishtirokisiz yeyilish miqdori U_{is} larni inobatga olgan holda quyidagicha keltirilgan


$$\varepsilon_{k(k,\chi)} = \frac{(U_{ch(k,ch)} - U_{is(k,ch)}) \cdot H_{k,ch} \cdot n_{p,k,ch} \cdot B_{k,ch} \cdot \gamma_m}{10,29 \cdot P \cdot d_{or}^2 \cdot \sigma_a \cdot G_{k,ch} \cdot n_{k,ch} \cdot \gamma_a \cdot k_v} \quad (6)$$

Kiritish kulachogi profilini abraziv zarrachalar ishtirokidagi yeyilish tezligini kulachok profili va turtgich gilzasning tutashuv kengligiga va moydagi abraziv zarrachalarning miqdoriga nisbatan o‘zgarishi


Kulachok profilining holati	Tutashuv kengligi, mm	Moydagi abraziv zarrachalarning miqdori ϵ_k ,				
		0,2	0,3	0,4	0,5	0,6
		Yeyilish tezligi mm/soat				
1	0,508	0,000347	0,000520	0,000694	0,000867	0,001041
2	0,709	0,000244	0,000366	0,000488	0,000610	0,000732
	0,741	0,000234	0,000351	0,000468	0,000585	0,000702
	0,771	0,000224	0,000336	0,000448	0,000560	0,000672
	0,799	0,000217	0,000326	0,000434	0,000543	0,000651
	0,825	0,000210	0,000315	0,000420	0,000525	0,000630
	0,849	0,000204	0,000306	0,000408	0,000510	0,000612
	0,872	0,000199	0,000298	0,000398	0,000498	0,000597
	0,894	0,000194	0,000291	0,000388	0,000485	0,000582
	0,915	0,000189	0,000284	0,000378	0,000473	0,000567
3	0,764	0,000227	0,000340	0,000454	0,000568	0,000681
4	0,764	0,000227	0,000340	0,000454	0,000568	0,000681
5	0,915	0,000189	0,000284	0,000378	0,000473	0,000567
	0,894	0,000194	0,000291	0,000388	0,000485	0,000582
	0,872	0,000199	0,000298	0,000398	0,000498	0,000597
	0,849	0,000204	0,000306	0,000408	0,000510	0,000612
	0,825	0,000210	0,000326	0,000434	0,000543	0,000651
	0,799	0,000217	0,000326	0,000434	0,000543	0,000651
	0,771	0,000224	0,000336	0,000448	0,000560	0,000672
	0,741	0,000234	0,000351	0,000468	0,000585	0,000702
	0,709	0,000244	0,000366	0,000488	0,000610	0,000732
6	0,508	0,000347	0,000520	0,000694	0,000867	0,001041

Kiritish va chiqarish kulachoklari profilini abraziv zarrachalar ishtirokida sodir bo‘ladigan yeyilish tezligini kulachok profilining 6 xarakterli qismlari uchun tahlil qilamiz. Kulachok profillarining 3 va 4 – qismlarini yeyilish jarayoni kulachok profilining egrilik radiusi 31,5 mm ni tashkil etgan sohasida sodir bo‘ldi, ularning yeyilish tezligi kiritish kulachok profilining 2-qismining oxirgi holatiga nisbatan 1,17 martaga, chiqarish kulachogida esa 1,20 martaga yuqori ekanligini ko‘rsatdi.

Kulachok sirtidagi yeyilishning miqdorini baholashda, Kulachokning turtgich bilan ilashmadagi tutashuv kengligining va keltirilgan egrilik radiusining prujinani deformatsiyalovchi kuchga bog‘liqligini o‘rganish muhim omillardan biri hisoblanadi. Tutashuv kengligini hisoblash uchun ishlab chiqilgan formula asosida jadval ko‘rinishida olingan natijalar yordamida ushbu kattaliklarning bog‘liqlik grafiklari tuzilgan. O‘z navbatida kiritish va chiqarish kulachoklari uchun bu bog‘liqliklar turlicha bo‘ladi(6,7-rasmlar).



6 – rasm. Prujinani deformatsiyalovchi kuch va tutashuv kengligi o‘rtasidagi bog‘lanish



7 – rasm. Prujinani deformatsiyalovchi kuch va keltirilgan radius o‘rtasidagi bog‘lanish

Yuqorida keltirilgan 6 rasmdagi grafikdan ko‘rish mumkinki, prujinani deformatsiyalovchi kuchning qiymati 660 N bo‘lganda kiritish va chiqarish kulachoklari uchun tutashuv kengligining qiymati mos ravishda 0,915 mm² va 0,896 mm² ni tashkil etadi.

Dissertatsiyaning **“Kulachok profilining yeyilishbardoshligini eksperimental tadqiq qilish va resursini oshirishdan olingan iqtisodiy samaradorlikni aniqlash”** deb nomlangan to‘rtinchi bobida kulachok profili va turtgich gilzasidan iborat bo‘lgan juftlikning ishqalanishini namunalar orqali modellashtirish, modellashtirilgan namunalarning o‘lchamini asoslash, yeyilishbardoshligini namunalar yordamida tadqiq qilish hamda yeyilishbardoshlikka sinash muddati asosida aniqlangan iqtisodiy samaradorlikni baholash ishlari olib borilgan.

